


Xonobod shahar Axborot-kutubxona markazi
Axborot-bibliografiya xizmati

She'riyat – shaydosiman

Biblografik sharx

**Sheriyat – shoir qalbida tug'ilgan
hayotiy tuyg'u...**



Xonobod-2024

Kirish



She`riyat – she`riy asarlar majmui. Dastlab sheriya deganda, umuman, badiiy adabiyot tushinilgan. Sheriyat, badiiyatga daxldor sanalgan. She`r shoir qalbida tug`ilgan hayotiy tuyg`ularni ifoda qiladi va shu bilan o`quvchi yuragini rom etadi.

Inson yuragi ham bir olam.uning ham har bahori, kuzlari, tong va tunlari, orom va zilzilalari bor. She`riyat yurak sadosi bo`lganidan ana shu murakkab tuyg`ular olamini ifoda qiladilar

So`zda sehr, sherda hikmat bor. Ushbu muborak kalom so`zga, sheriya berilgan yuksak baho bo`lishi barobarida qalam ahli uchun mezon hamdir. Ana shu yuksak talabga myvofiq bo`lmog`I uchun she`r hikmat va ma`rifatni mujassam etmog`I zarur. Shoirning shoirligi, aslida, ijod namunalari ana shu mezonga nechog`liq javob berishiga ko`ra belgilanadi. Har qancha mehnat va zahmat mahsuli bo`lmasin, iste`dodan bebahra ijod yuksak maqomga ko`tarila olmaydi. Chinakam iqtidor sohibi ilk asarlaridanoq ko`ngillarga yol topadi. Ijoddan kutilgan samaraga erishmoq uchun tun bilan kunning tafovutini unutish darajasida zahmat chekmoq zarur.

Abdurazzoqova Dilnoza Shokirjonovna Xonobod shahar Axborot-kutubxona markazi Abonomentlar va foydalanuvchilarga xizmat ko`rsatish xizmati bo`limi mutaxassisi. O`z kasbini sevgan jonkuyar, mas`uliyatli xodim.

Dilnoza 1988-yil 21-iyunda Andijon viloyati Qo`rg`ontepa tumani Sultonobod qishlog`ida tavallud topgan. Yoshligidan adabiyotga qiziqqan. Maktabni a`lo baholarga bitirib, Andijon pedagogika kollejida boshlangich ta`lim yo`nalishida va kompyuter operatorligi o`quv kursida taxsil olgan. Dilnoza o`zining ijodkorligi va qiziqishlariga asosan kollej radiosida radio eshittirishlar olib borgan. Dilnoza o`qish faoliyati davomida o`tkir qalam sohiblari faoliyatiga qiziqib, o`zining ijodiga mansub serma`no she`rlar yozgan. Dilnoza she`r yozish bilan birga hikoyalar, ertaklar yozib jamoasi bilan baham ko`rgan. Hozirda Andijon Mediata`lim texnikumida Kutubxonashunoslik yo`nalishining II-bosqich talabasi.

Dilnoza 2007-yil kollejini tamomlab, dastlab mehnat faoliyatini Xonobod shahar Maishiy xizmat kasb-hunar kollejida Dasturlovchi muhandis vazifasidan boshlagan. Keyin Xonobod shahar “Barkamol avlod” bolalar

maktabida ishlagan. Dilnoza oilali, 1 nafar farzandi bor. 2020-yil Xonobod shahar Axborot - kutubxona markaziga ishga qabul qilinib, mehnat faoliyatini davom ettirmoqda. Aholi, ayniqsa, o'quvchi-yoshlarga kitobxonlikni keng targ'ib qilish, kitoblarga bo'lgan mehrni uyg'otish, kitobxonlik madaniyatini oshirish maqsadida Axborot-kutubxona markazida barcha loyihalarda faoliyat ko'rsatib, kitoblarga bo'lgan mehri yanada oshib, ijodiy yuksalishi uchun o'z ustida ishlaydi. Dilnoza Abdurazzoqova O'zbekiston Ekologiya Partiyasi deputatligiga nomzod.

Axborot-kutubxona markazining internet ijtimoiy tarmoqlarida she'rlari va hikoyalari kitobxonlar e'tiboriga havola qilinadi.

Kitoblar taasuroti

Men kitob o'qiganda, osmonlarda uchaman,
"Olis yulduz" ni ko'zlab, *"Moviy yulduz"* quchaman.
Ba'zan *"Alkimyogar"*ning *Santyagosiman*,
*"Dumli yulduz"*dek go'yo samolarda kezaman.

Menga o'rnak bo'ladi, *"Ikki eshik orasi"*,
Sabrga yetaklaydi *"Ikki jahon ovvorasi"*.
"Tonggi farishta" bilan men dugona bo'lib,
Orzuga yetaklaydi *"Maktabimning xonasi"*.

Hayollar og'ushida *"O'tkan kunlar"*ni o'ylab,
Ba'zan *"Olis yo'llarda"*, *"Daryo bo'yida"* bo'ylab.
*"Ming quyosh shu'lasi"*da Azizani yetaklab,
"Lolaqizg'aldoq" sayriga olib chiqib ketaman.

*"Dunyoning ishlari"*ni *"Ufq"* bilan birgalikda,
"Yulduzli tunlar" uchun aylantirib kelaman.
"Xamsa" dostoniga men umrimni alishayin,
*"Boburnoma"*ga... Hatto, yuragimni berayin.

O'qigan kitoblarim juda ko'p va mazmunli,
Harflari dur donasi, undoshli hamda unli.
Sizlar ham kitob o'qing, sizga meni tavsiyam,
Kitoblardan olganim, katta mativatsiyam.

KUTUBXONACHI (21-may 2022-yil)

Kutubxonachilar kuni uchun yozilgan
Bir inson bor hayoli olamlarni kezadi,
Juda sezgir, yuragi har narsani sezadi.
Shunday kasb bor dunyoda, siz bilasizmi?
U insonning kasbi asli KUTUBXONACHI.

Bilimlar makoni, jannatday joyda,
Axborot-kutubxona markazida ishlaydi,
Lavozimi boshqacha, uni azaldan,
Mehrla ataydilar, KUTUBXONACHI.

Kitoblarni saralab, tartib bilan teradi,
Abonomentlarni a'zo qilib, kitob beradi.
Kitoblarni ta'riflab, hatto sharhlaydi,
Uning kasbi aslida KUTUBXONACHI.

Dunyo sirlarini omborini egasi,
Barcha buyuk shaxslarning ijodlari egasi.
Ilmlar makonini, beki hamda bekasi,
Uning kasbi aslida KUTUBXONACHI.

U hammaga o'rnakdir, juda bilimli,
Zehni o'tkir, madaniyatli, ilmi.
Halol mehnatidan zavqlanib yashar,
Uning kasbi aslida KUTUBXONACHI.

Kasbini sevadi u, fidokor inson,
Hamma faxrlanadi, jonkuyar har on.
Izlaning, o'qing deb, targ'ib qiladi,
Uning kasbi aslida KUTUBXONACHI.

Qo'llari ko'ksida, beradi salom,
So'zlari ma'noli, doim xushzabon.
Odobu yarashar, so'zlaydi ravon,
Uning kasbi aslida KUTUBXONACHI.

Oddiy joyda ishlaydi, kitoblar bilan,
Bilimlar ulashar, u ma'rifatparvar,

Kerilmas, maqtanmas, kamtar-kamsuqum,
Uning kasbi aslida KUTUBXONACHI.

Obod Vatanini rivojini o'ylaydi,
Kelajak avlodlarni, yuksaklarga chorlaydi.
Keling, o'ziz tanishing, suhbatin oling.
Uning kasbi aslida KUTUBXONACHI.

Oilasini mustahkam qilish yo'lida,
Bir bolasi qo'lida, biri yonida.
Fidokorlik ko'rsatar ziyo yo'lida,
Uning kasbi aslida KUTUBXONACHI.

Bu kasb egasidan chiqmas yomonlik,
Ziyo olib yashar, ziyo ulashar.
KUTUBXONACHILAR sizga tilar omonlik,
Ularni kasbi asli KUTUBXONACHI.

Qancha ko'p yozsam ham shunchalar ozdir,
Shoir so'zi tugamas ilhom kelganda.
Misoli sharqirab, oquvchi soydir,
Bu kasb egalari, maqtovga boydir,
Ularni kasbi asli KUTUBXONACHI...

MUROJAATNOMA

Assalomu alaykum! Aziz, Rahbarlarimiz,
Sog'ligingiz yaxshimi, tinchmi oilangiz?
Doim sizga sihat-omonlik tilab,
"Murojaatnoma" yo'lladim, xizmatim, sabab.

Qimmatli vaqtingizni ko'p olmayman,
Menga ham ozgina vaqt ajratsangiz.
So'zlarimni she'riy tarzida Sizga,
Yetkazgim keldi-da, ruxsat bersangiz.

Obod yurtning erkini bilgingiz kelsa,
Bozoriga boring, to'yiga boring.
Barcha sohalarda yutuqlarini,

O'qib-o'rganishi orqali ko'ring,

Men, shunday Vatanda baxtli yashayman,
Tunlarim osuda, kunlar farovon.
Ko'cha, mahalla-yu, go'zal shahrimda,
Yo'llari chiroyli, tekis va ravon.

Xonobod shahrimni maqtayin desam,
Ta'rifiga til ojiz, Shveydsariyadek.
O'zingiz kelsangiz ko'rasiz, yayrab,
Qolgingiz keladi shu yerda yashab.

Har sohada rivoji doim barqaror,
Fidokor, zaxmatkash insonlari bor.
Yurtimiz rivojiga hissam qo'shay deb,
Izlanib, o'qiydi, ular ijodkor.

Axborot-kutubxona markazida ham,
Bilim oluvchilar, emasdir hech kam.
Kitoblar o'qiyapti, ba'zi kamchilik,
"Ularga halal beryapti" deyman.

Men orzu qilaman shunday shahrimda,
Zamonaviy kutubxona bo'lsa qaniydi.
Hamma sharoitlar bo'lsa-da, unda,
Barcha bo'limlarga joy bo'lsa, maylidi.

Kelajak avlodlar, yosh-u, keksalar,
O'quv zallarda tinch, kitob o'qisa.
"Book cafe", zamonaviy kompyuterlar,
Kitobxonga yaxshi sharoit bo'lsa.

Xonobod shahrining gultoji "gumbaz",
Ko'rinib tursa-da, go'zal shahrim jamoli.
Issiq-sovuq kunlarda xodimlar uchun,
Ishlab tursa chillachining* mayin shamoli.

Axborot-kutubxona xodimlarining,
Ziyoli "Yagona formasi" bo'lsa.
Respublika xizmati faoliyatida,

Shu formasi orqali hamma tanisa.

Shifokor, harbiylarga havas qilaman,
Har joyda hamma tanir ularni.
Biz ham chiroyli, bejirim forma kiysakda,
Qayda bo'lsak, desalar, Kutubxonachilar-mi?

Yana ko'p narsalar so'rayman o'x-xo',
Orzuga ayb yo'q, demang jilmayib.
Meni, xalqimga chin xizmat qilgim kelyapti,
Ahil jamoam bilan jo'shib ham yonib.

Marhamat! Tashrif qiling! Shahrimning,
Jamolini ko'ring, ko'ngliz yashnasin.
Axborot-kutubxona markaziga ham,
Kelinglar, biir xursand bo'lib qolaman.

Tashrif chog'ingizda kamchiliklarga,
Guvohi bo'lsangiz, uzr so'raymiz.
Ish joyida ayrim kamchiliklarni,
Bartaraf etamiz, va'da beramiz.

Aholini, ayniqsa, yoshlarimizni,
Bo'sh vaqtlarini zo'r tashkil qilamiz.
Barchani kitoblar o'qishi uchun,
Fidokorlik bilan xizmat qilamiz.

Bizga yana ozgina, e'tibor kerak,
Murojaatim yechimini topasiz albat.
Zamonaviy kutubxona bo'lsa yangi yildan,
Qo'llarimiz ko'ksimizda qilamiz xizmat.

Orzulari ko'o'o'p xodimni, sizga,
Mana shudir murojaati, nomasi.
Raxmat, avvalambor, o'qiganizga,
Yozdimda, gapni kelganda xonasi.*

O'zim ko'o'o'p kitoblar o'qiganimga,
Kitobxon xalqimga ham ilindimda.
Zamonaviy kutubxona bo'lsa yaxshiydi,

Deb qo'yamanda, doim ichimda.
Olmayin qimmatli vaqtlaringizni,
Kutaman, "Murojaatnoma" javoblarini.
Mayli men xizmatga shoshilay, tezda,
Kitobxon kutib qolmasin yana...!

- 1.Chillachi-konditsioner.
- 2."Gapni xonasi kelganda" degan iboraga o'xshatib yozdim.

Jannatim ota-onamga

Menga havas qiling ey, azizlarim,
Onam bor, otam bor, qiblagohlarim,
Orzu-tilaklarga erishishimiz uchun,
Ular meni duo qiladi.

El-yurtda xurmatim, bor ekan, shukur
Onam meni har tong duo qiladi.
Shunday yurganimning hikmati katta,
Onam meni har kuni duo qiladi.

Erishgan yutuqlarim juda ko'p, shukur,
Armonlarim uchun yaxshilik tilar,
Balo-qazo, tuxmatlardan asrasin, deya,
Dadam meni har kun duo qiladi.

Menga xasad qilmang, o'zizga jabr,
Doim harakat qiling, qilingda sabr.
Axir borar joyimiz emasmi, qabr,
Ota-onam meni duo qiladi.

Jannat egalarin duosi uchun,
Halol yashayabman, g'iybat qilmasdan.
El koriga yaray, deya tinmasdan,
O'zgarlar moliga ko'zim tikmasdan.

Jannatlarimni ziyorat qilgani borsam,
2 ta issiq non, 1 ta shirmoy non.
Olib borsam, o'zing ham yegin, bolam deb,
Ilinadi men tomonga mehrla qo'yib.

Ozgina diydorlashib, suhbat qurgandan keyin,
Nasihat boshlaydi, so'zlari mayin.
To'g'ri yur, to'g'ri yasha deydi har qachon,
Yoshim 36 ga kirgan bo'lsada.

Men baxtli insonman, behisob shukur,
Davlatimiz otam bor, jannatim onam.
Eh, Ota-onam, zaxmatkashlarim,
Qaniydi men sizni boshda ko'tarsam.

El-yurt tinchligi-yu, farovonlikni,
Akam-u, singlimni, qavm-qarindoshni,
Farzandlarimizni omadin so'rab.
Tun-u kun ibodatda duo qiladi.
Onam meni duo qiladi,
Dadam meni duo qiladi.

Ularning borligi men uchun oliy baxt,
Jannatlarda ularga hozirlylik taxt.
Qiblagohlarimni marhamat qilgin Allohim,
Ular bizni marhamatla voyaga yatgazgani uchun.

Ezgu-tilaklari amalga oshdi,
Orzu-havaslarimizni ko'ryabdi shukur.
Sog'-salomat yashab yurishim uchun,
Ota-onam meni duo qilyabdi.

Kitob o'qing!

Shunday joylar borki, siz halovat topmaysiz,
Bog'u-rog'lar kessangiz ham, saxovat topmaysiz.
Kitoblar o'qimasdan, zakovat topmaysiz,
Kutubxonaga kirib, siz kitob o'qing!

Kitoblarni qayta-qayta o'qing erinmang,
Har o'qiganda u, sirin ochadi.
Turli tashvishlar bilan uyqu qochganda,
Kitoblarni varaqlang, siz kitob o'qing!

Kitobdan o'zga do'st yo'qdir jahonda,
Har narsa o'tkinchi, qolmang armonda.
Yangi O'zbekiston, yangi zamonda,
Kutubxonaga kirib, siz kitob o'qing!

Qarang qanday, sharoit kitobxon uchun,
O'quv zallar yorug', "Book cafe" bordir.
Qishda issiq xonalar, yozida salqin,
Ayting qayda bordir, qaylarda bordir!?

Yoshlarni baxti bor, imkon berguvchi,
Prezident otasi-tayanchi bordir.
Havas qilib aytamiz, siz bolajonlarga,
Kutubxonaga kirib, siz kitob o'qing!

Kitob o'qing azizim, ey, azizlarim!
O'qigan inson hech xorlik ko'rmaydi.
Yurtboshimiz aytadi o'z so'zlarida,
-"Kitob o'qimagan millatning kelajagi yo'q".
Kutubxonaga kiring! Marhamat!
Siz kitob o'qing!

Kutubxona senga bo'ladi makon

(Imtiyozli oila farzandi, tanishim, o'qishga kirolmay yiqilganda, qo'limdan kelganicha mativatsiya berganim...)

Kelajaging uchun qayg'urgingda,
Ilm izlab har yonga yugurganingda.
Manzillarga borib, o'ylanganingda,
Kutubxona senga bo'ladi makon.

Ko'ngil yozish uchun joy topolmasang,
G'amlar eshigini shart yopolmasang.
Orzuingga yetolmay, yo'l topolmasang,
Kutubxona senga bo'ladi makon.

Ba'zan hayot tashvishidan qochging keladi,
Shirin orzularing ochging keladi.
Kitoblar sirini anglash o'yingda,
Kutubxona senga bo'ladi makon.

O'qigin, izlangin, hech tinmagin sen,
Kitob istak yo'lida mayoq bo'ladi.
Erinmay o'qigin sen qayta-qayta,
Kitoblar sirini senga ochadi.

Boburu, Alisher, Amir Temurlar,
Kitoblar o'qigan sham yorug'ida.
Senda qancha imkon bor o'qishing uchun,
Kutubxona senga bo'ladi makon.

Ko'p-ko'p kitob o'qib, olim bo'lganda,
Shaxsiy kutubxonang bo'lar, albatta,
Kutubxona senga bo'ladi makon,
Kitoblar sirini ochganda senga...

Kitoblar o'qigim keladi doim

Kutubxona jannatga o'xshagan makon,
U yerda g'iybat yo'q, aslo yo'q gumon.
Kitoblar ichida yotar sir-asror,
Kitoblar o'qigim keladi doim.

Kitobni qancha ko'p o'qisang agar,
U senga sirini ochadi har gal,
Kitob o'qir, hatto shoh ham, gado ham,
Kitoblar o'qigim keladi doim.

"Kitobdan yaxshi do'st topilmas aslo",
Senga vafo qilmas, yaqinlar hatto.
Elektr o'chganda, kunduz, tunda ham,
Kitoblar o'qigim keladi doim.

Kitob hamroh bo'lar senga har mahal.
Sirdoshing bo'ladi, aslo sotmaydi.
Kitob o'qimasam tonglar otmaydi,
Kitoblar o'qigim keladi doim.

Zeriksam, Internet saytlaridan,
Foydalanib bo'sh qolgan paytlarimdan.

Bolamga mehrimni berib, tunlari,
Kitoblar o'qigim keladi doim...

AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI

Kitoblarni vatani bu-kutubxona,
Bilimlarni makoni bu-kutubxona.
Kitobxonlar maskani bu-ziyolilar maskani,
Axborot-kutubxona markazi.

Bilimlilar faoliyatini yuritir,
Ilmlilar ziyo nuri taratar.
Madaniyat-ma'rifat maskani bu-
Axborot-kutubxona markazi.

O'z ustingda ishlashingga imkon bor,
Kitoblarni o'qishingda bor imkon.
Halovatni ushbu joydan toparsan,
Axborot-kutubxona markazida.

Yangi bino, sharoiti zo'r juda,
Bahor, yoz, kuz, hatto qishning sovug'ida.
Mazza qilib kitoblarni o'qiysizda,
Axborot-kutubxona markazida.

Madaniyatli, ziyolilar ishlashadi,
Siz bilan ham fikrlarin almashadi.
So'ragan kitobingiz sharxlashadi,
Axborot-kutubxona markazida.

Siz kelsangiz so'rovingiz qabul qilib,
Har turdagi kitoblarni targ'ib qilib.
Formulyarga yozishadi, terib-terib,
Axborot-kutubxona markazida.

Hatto o'zi o'qiganlarini ilinib,
Erinmasdan sizga so'zlab berishadi.
Buyurtmaga kitob eltib berishadi,
Axborot-kutubxona markazida.

Imkoniyati cheklangan kitobxonning,
Xonadonin obod qilib kelishadi.
Mahalla-yu, tashkilotlar ko'nglin olib,
Kitob bilan ta'minlaydi, hamkorlikda ishlashadi,
Axborot-kutubxona markazida.

O'tkazadi tadbirlarni eng sarasini,
Zakovat-u, bilimlilar bellashuvini.
Loyihalar asosida kitobxon bilan,
"Birga-birga kitoblarni o'qishadi"
Axborot-kutubxona markazida.

Kichik yoshdan, katta nuroniylargacha,
Tashabbusda faoliyati juda katta,
Keling, kitoblardan o'qing, albatta,
Axborot-kutubxona markazida.

Interneti kitobxonga cheksiz bo'lar tekin,
Gapirmang, jim, yugurmang, yuring, sekin.
Abonomentlar oromini buzmay, keting,
Axborot-kutubxona markazida.

Zo'r-zo'r adib, shoirlar-u, ijodkorlar,
Yozuvchilar, san'atkorlar mehmon bo'lar.
Katta-kichik kitobxonlar a'zo bo'lar,
Axborot-kutubxona markazida...

"Intilganga tole' yor" der dono xalqim,
Kelajak avlodga o'rnak bo'laylik.
Munosib farzandlar tarbiyalaylik,
Yuksak manzillarni zabt etsin yurtim!

Ijod

Ijodkor insonni ijod mahsuli,
Qalamla qog'ozga qilinadi jo.
O'zimni boshqacha sezsam mobodo,
Men ham ijod qilaman, ilhom kelganda....
Men she'rlar yozaman, so'zlar zanjirin,
Ulayman ma'nosini anglamoq uchun.
Bu hayot insonga erur omonat,

Omonatga xiyonat qilamiz nechun.
Shunday taqdirlar bor, ayanchli, sassiz,
Baxt qasrida yashar shoh-u, kimsasiz.
Baxtini qadriga yetmagan inson,
Axiyri yig'laydi, dodlab, ovozsiz.
Baxtingiz qadriga yeting insonlar,
Axir inoq yashayabdi, qarang, hayvonlar.
Chumolilar tinmaydi, mehnat qiladi,
Ularda yo'q sizdagi mo'jiza axir,
Sizlar eshitasiz, gaplashasiz ham,
Chumolilar dardini gapirolmaydi.
Dunyoning borligi o'zi mo'jiza,
Olamni kengligi mo'jizamasmi?
Ko'zingiz, qo'lingiz, qimmat vaqtni,
Telefon, internet uchun sarflaysiz.
Yaqinlar mehrga muxtoj bo'lsa ham,
Mehringiz ulardan ayaysiz nechun.
Hammamiz o'tkinchi, omonatdir jon,
Kimdir quloq solar samo sasiga.
Kimlardir uvol qilar, gulday umrini,
Nega ibodatlar qilmaysiz, nechun.
Keling, telefonni o'chirib biroz,
Insonlar bilan dardlashing, kuling.
Ibodatlar qiling, kecha-yu, kunduz,
Tavba qiling, poklaning, yorug' bo'lsin yuz.
Yaqinlarni yo'qlang, 2 ta issiq non bilan,
Dunyoning qutqaring duolar olib.
Siz duo olganda farishtalar ham,
Suyunib ketsinlar savoblar yozib.
Gaplarimni malol olmangiz aslo,
Umr g'animatki, vaqt o'tkinchi.
Issiq jon, ozgina fursatdan keyin,
Bormizmi, yo'qmizmi, O'zi bilguvchi.
Hozirdan hazina to'plang jannatga,
Salovotlar o'qing, duri sochilsin.
Zikrlarni qiling erinmay har dam,
Qalblaringiz qulfi mutlaq ochilsin.
Kattalik qilmayman, sizga ey, opam,
Mahmadona bo'lmayin, sizga, ey, singlim.
Jannatga hazina-savoblar to'plang,

Jannatga intiling, izlaning, o'qing,
Keling birga boshlaymiz hozir,
Shahodat kalimasin aytamiz.

Hurmatli Prezidentimga.

Ming shukur qilaman, Tangri taologa,
Bizga shunday Prezident ato qilibdi.
Nazari tushgan bu xur diyorumning,
Gullatib, yashnatib, obod qilibdi.

Raxmat, aytib duo qilaman har kun,
Keng imkoniyatlar eshigini ochib qo'yibdi.
Yurtimiz ravnaqi yo'lida tinmay,
Fidokorlik qilib, tinim bilmabdi.

Men duo qilaman Prezidentimning,
Ikki dunyo baxt-saodatini bersin, Allohim.
Vatanim yanada ko'p rivojlansin,
Aholisi shukurla, baxtli yashasin...

Qarang, qanday, zo'r yurtda yashaymiz,
Imkoniyatlar eshigi ravon ochilgan.
To'rt fasl mujassam, mukammal hatto,
Ekinlari mo'l-ko'l, durday sochilgan...

Shunday obod yurtning farzandiman men,
Tinchlik sabab xotirjamlik hukm surmoqda.
Faxrlanib yashayman prezidentimdan,
Intilish, yuksalish vaqti kelmoqda.

Yuragim

Qalbim og'rinmagin, sendan iltimos,
Qiyname ruhimni, azobga qo'yib.
Sabr bizlar uchun kelgan ishonib,
Yengaylik g'amlarni birga bo'lvolib.

Shunday qilsak sabr biz uchun ana,
Hayrli hayotni sovg'a qilyapti.

Chiroyli yashashga intilgan sarim,
Yana ko'p, uzooq yashagim kelyapti.

Vaqtimni tugashini xohlamayman, hech,
Axir hayot go'zal, dunyo chiroyli.
Tushunib yetaylik bo'lmasin-da, kech,
Bir bor to'yib nafas olayda mayli....

Mayli yomg'ir yog'sin, qor bo'ralasin,
Tabiatning in'omi bu bizlar uchun.
Quyosh chiqib, oy oydinlaganda,
Shukurlar qilmaymiz, biz, nega, nechun?

Ozgina narsaga noliymiz nega,
Hayot qadrini pul, o'lchamaydi-ku,
Yaxshi yashash uchun yurak kerakda,
Yurakni tugatsak, yashamaymiz-ku.

Keling, hozir shu jajji yuragimizga,
G'am-tashvishlarsiz bongni beramiz.
Har urganida, u ham yayrasin,
Shunda o'zimiz ham mazza qilamiz.

Siqmaylik yurakni, keng jismimizda,
Yayrab ursin, qisinib havotir olmay.
O'zimizni idora qilaylik, do'stlar,
Asraylik bu in'om bizga omonat!...

Farzlarni bajarish, kun rejasini,
O'zingiz tuzvoling, aqllisiz-ku.
Sahar, tong otmasdan turing-da, bo'ling,
Axir siz kuchlisiz, ha, kuchlisiz-ku!

Farzimizni ado etaylik ko'proq,
Umrimiz tugab, qolyapti sekin...
Keling, kuling, tabassum pulli emas-ku,
Yayrab yashashlik ham biz uchun tekin...

Faqatgina ozgina xohlash kerak-da,
Yaxshi yashash uchun doim intiling.

Qancha minut, daqiqa qolgan yurakda.
Hayotning bebaho qadrini biling!
Men kitob o'qiganda...

Qizim

Ko'zlarimni nuri o'zing jonim, qizim,
Halol yasha 5 kunlik dunyo o'tkinchi.
Gunohi ko'p insonlarni ko'ryabsan, mana,
Hayotidan nolib yashar, ko'pdir o'kinchi.

Sen hech qachon yolg'on gapirmaginda,
Go'zal hayot hadya qilar Allohim.
Mazmunli umringni shukurlar bilan,
Bezagin, baxtli bo'lgin, ilohim...

Ajoyib kulguying, tabassuningga
Jonimni tikayin, shirin so'zingga.
Bizni duolarimiz bilan ko'karib,
el-yurtga xizmat qil,.... Aslo xiyonat qilma
O'zingga
(davomi bor...)

Bu hayotda nima ko'rdim, aytingiz begim,
Zor-intizor kutishlar, simm sog'inishlar.
Ayriliq azobi-yu, farzand dog'idan,
Qovjirab, qovurilib, azob chekishlar.

Sitamlar mitti yutagimni-da,
Nimtalab-nimtalab, qumday eladi.
Dilim vayron bo'lib, sovib ham muzlab,
Endi qattiq erimas toshga aylandi.

Qiyinchilik atalmish sinovlardan dod,
Farzandlar dog'idan goh chekib faryod.
Taqdirim izniga bo'ysinib ba'zan,

O'z-o'zimga sig'mayman, bu hovli hayhot!

Sinovlar ortidan uzooq baxtimni kutib,
Charchadim, charchadim, men charchab ketdim.
Axir, axir yetar shuncha sinalish,
Boshqa sabrim qolmadi, qiynalib ketdim.

Men endi baxtni ham his qilmay qo'ydim,
Quvonchni oddiy bir o'yinga yo'ydim.
Hayotdan uzoqlashib ketyapman asta,
Yuragim kun sayin bo'lyabdi hasta.

Sog'inib-sog'inib, sog'inmay qo'ydim,
Menga endi hech kim kerakmas.
Qizalog'im Azizaxon bo'lsa yonimda,
Men uchun shu qizim baxtli bo'lsa bas.

Qizimni baxti-iqboli uchun,
O'zimni mardonavor tutaman albat.
Menga suyangan tog' bo'lishiz kerak,
Shunda buyuk baxtimiz ko'taradi qad!

Aziz baxtim

Ko'zlarim iltimos qilaman sendan,
Yoshlaringni to'kma, ezma bag'rimni.
Men chidamli ayolman bu sinovlarga,
Axir bilasan-ku, sabrimni.

Uyimizga nur kirdi, quyosh charaqlab,
Tun-u, kun osmonda porladi quyosh.
O'glim tug'ilgan kun, hatto kunduzi,
Tog'lar sado berib ko'taribdi bosh.

Yulduzlar porladi osmonda nogoh,
Meni kuzatibdi hatto qushlar ham.
Oilamga nur kiritgan bu aziz farzand,
Baxtimni oilam bilan ko'ribman baham.

Bu baxtim uzoqqa cho'zilmadi-da,
Mayli jannat uchun yana pog'ona.
Ko'zlarim yoshlaring to'kmagin yana,
Men mana yaqinda bo'laman ONA!

Meni bardoshimga tog'ning sadosi,
Yetdimi, bilmadim chaqmoq chaldi-da.
Momaqaldironning gumbur nidosi,
Yomg'irlarni yerga asta soldi-da.

Yomg'ir

Yomg'irni men yaxshi ko'raman,
U meni dardlarimni asta yuvadi.
Yuvadi-yu, tinganda nogoh,
Loyqa kabi. Balki izi qoladi...
Yomg'irni men yaxshi ko'raman...

Yomg'irni men yaxshi ko'raman...

Yomg'irni men yaxshi ko'raman,
U sevgimga bo'lgandi guvoh.
Jajji bolaligimday, yoshligimda ham,
Qilmaganman sofday begunoh.

Yomg'irni men yaxshi ko'raman...
Sochlarimga qirov tushyapti.
Ko'zlarimga nur berib tabora,
Bo'lyapti u menday ovvora.

Yomg'irni men yaxshi ko'raman...
Sog'inch sirlarimni asta to'kar u...
Hayollarim to'zg'igan payti,
Balki so'kar, yupatadi u...

Yomg'irni men yaxshi ko'raman...

Yomg'irni men yaxshi ko'raman,
U tabiatning sirli qo'shig'i.
Insonlarni xotirasini,
Anglatuvchi mungli oshig'i.

Yomg'irni men yaxshi ko'raman,
U meni dardlarimni asta yuvadi.
Yuvadi-yu, tinganda nogoh,
Atirgulda. Balki izi qoladi.
Yomg'irni men yaxshi ko'raman...

Yomg'irni men yaxshi ko'raman,
To'yimiz kunida yoqqandi yomg'ir.
To'rtta farzandlarim tug'ilgan onda,
Yomg'ir meni qutlagan axir.

Hatto momaqaldiraq-chaqmog'i chalib,
Gumburlagan sado ostida asta.
Quyosh ko'ringuncha shitirlab yomg'ir,
Meni tabriklagandi bo'lib barvasta.

Yomg'irni men yaxshi ko'raman,
U baxtli kunlarimning guvohi.
U bilan baxtli kunga intilib yana...
Yomg'irni men yaxshi ko'raman...

Begin

Umrimning mazmuni o'zingiz begim,
Qalbimning gavhari ko'zingiz begim.
Suyangan tog'imizsiz, ishongan bog'imiz,
Yozilmagan qonundir so'zingiz begim.

Ho'p bo'ladi, deya aytgan gapingiz,
Ikki qilmay yashadim, molingiz asrab.
Mehribonim, hayotim, borim o'zingiz,
Sog'inib yashayabman men diydor istab.

Ko'pni qatorida qayda bo'lsangiz,
Yaratgan panohida asrasin doim!

Mening omonatimsiz agar bilsangiz,
Doim dastingizga bersin Xudoyim!

Topganingiz yaxshi kunda chiroyli,
Hayrli ishlar uchun sarflansin.
Boringizga shukur deyman har doim,
Baxtimizga yomon ko'zlar tegmasin

Baxt qasri

Har doim yonimda bo'lsangiz deyman,
Sizni hijroningiz men uchun yomon.
Qalbimning sog'inganda g'amini yeyman,
Ardoqlab qo'ysangiz bo'ladi-omon.

Erkalab shirin so'z ayting yiroqdan,
Qutulsin mislsiz nafi firoqdan.
Yuragim erikib uradi sizziz,
Ko'nglim yorishmaydi porloq chiroqdan.

Tun-u, kunim ranggi bir xil, netayin,
Turmush tashvishlari yuki og'irroq.
Ko'zlarim yoshini to'kishi tayin,
Siz borsiz-u, masofa uzoqda biroq.

Tirikchilik dardida ayriliq sabab,
Meni bardoshimni yemirdi asta.
Yana yashayabman o'zimni aldab,
Yuragim-bu sabrlardan bo'ldi-da hasta.

Uy-joyimiz bitdi-yu, sharoit ham bor,
Sog'likni almashdik, yillar o' tganda.
Yo'qotishlar... Albatta aytishim darkor,
Yoshimiz ulg'aydi vaqt bilan birga.

Endi, umr qancha qoldi O'ziga ayon,
Buyuk baxtga erishish umididamiz.
Orzu-havaslarimiz bizni kutyabdi,
Baxt qasrida yashaylik bugundan buyon.

Hamma havas qilsin, intilib baxtga,

Ko'zlarimiz yashnasin shod kulgusidan.
Mana erishdik-ku, toj-u, ham taxtga,
Nima yetsin to'kin hayot va butun baxtga.

Oila-a'zolarim hamma yonimda,
Qarindosh-urug'lardan sog'-omon barcha.
Eng muhimi umr yo'ldoshim yonimda,
Farzandim quvonchi men uchun darcha.

Bu darchani ochishlikka yillar kor qildi,
Sinaldim taqdirning silsilasidan.
Yo'qotishlar mening bag'rimni tildi,
Mana nihoyat kirdim BAXT ostonasidan.

Baxt qasrim men uchun judayam aziz,
Farzandim kulgusi bunda namoyon.
Umr yo'ldoshim mehri naqadar laziz,
Baxtli kunim men uchun yanada ayon.

Men hammaga baxt-u, iqbol tilayman,
Nihoyat duolarim bo'ldi ijobat.
Vatanim tinch bo'lsin, gullab-yashnasin,
Baxt qasrlari ko'paysin, ko'paysin albat!

Go'zal hayot... (06.04.2024-yil, 07:50 da)

Sen yomonsan beda'vo dilim,
Sal narsaga og'rib qolasan...
Ovutsam ham teskari qarab,
Arazlaysan, erkalanasan.

Seni avaylasam, po'palasam ham,
Hamma ozor senga tegadi.
Beda'vo bo'lmagin, arazlama ham,
Erkaliging bir kuni boshim egadi.

G'amlarni ko'pligi ko'ksimni asta,
O'yib borar, tirnab ataylab.
Yer tomon boshlaydi egib barvasta,
Bag'rimga og'irlik qilyapti bu dard.

Dilimni avaylab, ko'nnglim ovutib,
Farovon yashashga harakat qildim.
Yomonlarni olovidan, qochib sovutib,
Yashash kerakligin, oxiri bildim.

Ko'kka bo'y cho'zganda durkun teraklar,
Qushlar sayrganda musaffo osmon.
Bahor kelganidan berar daraklar,
Sokin ko'nnglim, beozor dilim bilan
Baxtli yashashlik uchun intildim.

Har qanday sinovni mag'rur yengib men,
G'oliblik nashidasi ichra kezaman.
Endi faqat baxtli, baxtli yashayman,
Shunda o'zligimni o'zim sezaman.

Dilimni sitamlarga yaqinlashtirmay,
Aylanib o'taman g'am ko'chasidan.
Garchi uzooq bo'lsa-da, tanlagan yo'lim,
Baribir kiraman baxt ostonasidan.

Kechani unutib, ertaga tavakkal qilib,
Men faqat bugunim bilan yashayman.
Yaxshi kunlarimga rejalar tuzib, umrimni,
Chiroyli taasurolar-bilan bezayman.

Sizlarga tavsiyam, mativatsiyam,
Baxtli yashashlikka doim intiling.
Izlaning, o'rganing, zavq bilan yashang,
Go'zal hayot gashtini hozirdan biling!

Chunki g'animatdir umrimiz axir,
Bugun bormiz, ertaga kimdir...
Uy-joyni talashmang, yerni talashmang,
Yerniki emasmizmi, biz axir.

Obro'-mansabni ko'zlamang, hargiz,
Talashmang hokimlik ostonasini.
Bizni Yaratganni unutmang-da, biz,
Oddiy bandasimiz koshonasini.

O'ylamang aql o'rgatmang deya,
Bir oz fikr qilib, o'ylaning asta.
Yengil nafas olib bugungi kunga,
Shukur qiling bo'lib barvasta.

Insonning yaxshi yashashi uchun,
Koshona shart emas, o'ylab ko'ring-chi,
Aslida bir burda non, ozgina suv ham,
Yetarli emasmi? Qani aytingchi?

Jannatning erkatoylari

Mana bugun dushanba o'yga tolaman,
Yana qalamimni qo'lga olaman.
Fotiha o'qiyman, duo qilaman.
Tangrimga behisob shukur aytaman...

Ichimdan bir faryod keladi arang,
Men o'zimni zo'rg'a bosib qolaman.
Diyoraposhsho qizimni esga olaman,
Jannatning erkatoyi bo'lding sen qizim.

Allohim jannatining erkatoyi sen,
Asalxon qizima, farishta qizim.
Muhammadorif ukang yonlaringdadir-a?
Allohim jannatining erkatoylari.

Osmonga qarayman, bulut bormi deb,
Bulutlarni farishtalarga qiyoslashadi,
Mening ikki qizim, bir pahlavonim,
Farishta bulutdek ko'rinarmi deb.

Farzandlarim dog'i meni azoblaganda,
Allohimga hamdu-sano aytaman,
Na qilay bandamiz taqdirimizda,
Borini ko'ramiz, sabr qilaman.

Alloh jannatining eshigi oldida,
Meni kutib o'ynab yurishgandir-a?
Mening ikki qizim, bir pahlavonim,

Allohim jannatining erkatoylari.

Allohimga mendan salom ayting deb,
Sizlarni tun-u, kun duo qilaman.
Sizlar yuragimni sirli uyida,
Allohim jannatining erkatoylari.

Sog'inib-sog'inib, chidolmaganda,
Berkinib, yig'lab-yig'lab olaman.
Sizlar meni yupatib ketasiz shunda,
Allohim jannatining farishtalari.

Shirin kulguyingiz, ovozingizni,
Har kuni qo'msayman hidlaringizni.
Inshaalloh, ko'rishamiz biz jannatlarda,
Allohim jannatining erkatoylari.

Azizaxon yonimda menga suyanchiq,
Yig'lasam yonimda doim yupanchiq.
Jigaringiz men bilan chexrasi ochiq,
Allohim jannatining erkatoylari.

G'amlar, alamlar, bu bitmas dog'lar,
Onangizni butkul shoira qildi.
Sizni sog'inganda ovunish uchun ham,
Gaplashaman qalamim orqali qog'ozim bilan.

Qog'oz ko'tarolmay dard-hasratimni,
Qora rangni olar to'lib toshganda.
Qalamim sinadi charchaganidan,
Yozolmay qoladi, tugating deya.
Rasmingizga qarasam, yana sog'inaman deb,
She'rlarga sochaman qalb sirlarimni.

Jannatning erkatoyi bolajonlarim,
Onangizni keling siz ovutgani.
G'oyibona bo'lsa-da, bag'rimga bosay,
Zero, bosilsada yurak kuyganim.

Sog'inib-sog'inib she'r yozdim mana,

Ancha paysalladi, yurak cho'g'larim.
Sizlarni erkalab, bag'ringa bosib,
O'pganday tuyuldi, men buni sezdim.

Ko'zlarimni nuri, jigarbandlarim,
U dunyoga bergan dasturxonlarim.
Mening ikki qizim, bir pahlavonim,
Allohim jannatining erkatoylari...

Ayolning baxti nimada, ayting?
Dasta-dasta puldami, taqinchoqdami?
Shirin so'zingizga zor bo'lib kutar,
Sevgi izhor qilsangiz, barin unutar.

Oson tutmang siz eringizga,
Sizlarni deb yashab yuribdi.
"Sizni so'rab qoladi" deya
4 so'm pulni asrab yuribdi.
Cho'ntagiga aslo qo'l solmang,
Gaplaringizni siz malol olmang.
Jonim opam, ey, singiljonim,
Eringizga siz oson tutmang.
Erta sahar, tong yorishmasdan,
Ishga borar to'yib uxlamay.
Hayolida oilasin boqish,
Eringizga siz oson tutmang.
Bor dardlari ham ichida uning,
Qo'llari qavargan og'ir mehnatdan.
Issiq-sovuq demasdan kunning,
Hatto tong-saharni tunatgan.
Oson tutmang siz eringizga,
Uni ham dam olgisi keladi, axir.
Ishdan kelsa yana ish aytmang,
Charchog'ini chiqaring, shirin so'z ayting

Allohim jannati bo'lasan deya,
Menga sinovlarni yubordi, shukur.

Bandalarin hayotini solishtirganda,
Eng baxtlisi o'z zimman, behisob shukur.

Chunki, shunday taqdirlar borki, ayanchli,
Ularni eshitib, chuqur o'yga tolaman.
Shukur menga nasib etdi, onalik,
Ona degan nomni oqlay olaman.

Ona tili (ertak)

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadimda emas hozirgi zamonda bulbul, chumchuq va musicha ahil-inoq yashashar ekan. Ular bir kuni suhbatlashib-sayrashib o'tirsa, oldidan bo'taloq, xo'tikcha, qo'zichoq, toychoq, buzoqcha hamda kuchuk o'tib qolibdi. Shunda bulbul: – bo'taloqni tuyavoyini o'g'ilchasi ekanligini, xo'tikchani eshakvoyni o'g'ilchasi, qo'zichoqni qo'yjonni o'g'ilchasi, toychoq otvoyni o'g'ilchasi, buzoqcha sigiroyni, kuchukchani esa it akamni qizchasi deb aytibdi. Shunda chumchuq:

– Yo'o'o'q aldading sen, tuyani bolasi tuyaloq, eshakni bolasi eshakcha, qo'yni bolasi qo'ychoq, otni bolasi otchoq, sigirni bolasi sigircha, itni bolasi itcha deyiladi-ku, debdi. Musicha ham chumchuqni gapiga qo'shibdi.

– Ha, to'g'ri, men rus tili to'garagiga borganimda, "tuyani bolasini–верблюд, eshakni bolasini-асель, qo'yni bolasini-баран, otni bolasini-лошадка, sigirni bolasini-коровка, itni bolasini esa, собачка" deb o'rganganman

Bulbul: – Ey, meni aziz do'stlarim. Bizni o'zbek tili judayam serma'no, sermazmun, ajoyib til. Shuning uchun sizlar, avvalo o'z ona tiingizni mukammal o'rganing. Hatto, men bulbul bo'lsam ham, o'z xonishimni o'z ona tilimda sayrayman debdi. Chumchuq bilan musicha bulbulga qarab: – O'rtoqjon, bizga ham o'z ona tilimizda chiroyli sayrashni o'rgatasanmi deyishibdi. Bulbul mamniniyat bilan: – Ha, albatta, sizlar meni jona-jon do'stlarimsiz-ku, debdi.

Sheriyat shaydosiman: Bibliografik sharx / tuzuvchi : G.Aminova. – Xonobod, 2024. – 26 b.

